

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Ashurov	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar	106
T.A.Julboyev	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'limdan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
C.Ф.Джафарзода	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
A.M.Maxmudov	
Yosh futbolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish	124
I.U.Nurmetova	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish	129
U.R.Radjarov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatli o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati	136
G.K.Yakubova, M.Mashrapova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatlari tahlili	141
B.A.Rahimov	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi	148
N.V.Nosirov	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari	154
F.I.Sharipova	
The development of reading literacy among future nurses	158
L.X.Bektursinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
K.X.Abduvaliyeva	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии	169
R.M.Ubaydullayev	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi	173
M.M.Yuldashov	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
M.A.Suyunova	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari	190

IQTISODIYOT

O.Sh.Valiev	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan	194

FALSAFA

A.A.Qambarov	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili	199
S.U.Yuldashev	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari	203
G.N.Navro'zova	
Shoh Naqshbandni tavsiflovchi yangi manbaa	207
A.N.Sanaqulov	
Ta'lim tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari	211



UO‘K: 001.8:316.42

JAMIYATNI ILMIY BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA FUNKSIONAL JIHLTLARI**ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ НАУЧНОГО
УПРАВЛЕНИЯ ОБЩЕСТВОМ****INSTITUTIONAL AND FUNCTIONAL ASPECTS OF SCIENTIFIC MANAGEMENT OF
SOCIETY****Yuldashev Serobjon Urmonaliyevich**

Farg‘ona davlat universiteti v.b.dotsenti, Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya

Mazkur maqolada jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funktsional jihatlari ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan. Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funktsional jihatlari ijtimoiylik tamoyillari amalga oshiradi. Jamiyatning ijtimoiy institutlari tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv jarayonining muhimligi tadqiq qilingan.

Аннотация

В данной статье с социально-философской точки зрения раскрываются институциональные и функциональные аспекты научного управления обществом. Институциональные и функциональные аспекты научного управления обществом реализуются принципами социальности. Исследовано значение процесса управления, осуществляемого социальными институтами общества.

Abstract

In this article, the institutional and functional aspects of the scientific management of society are revealed from a socio-philosophical point of view. Institutional and functional aspects of scientific management of society are implemented by the principles of sociality. The importance of the governance process carried out by the social institutions of the society has been researched.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, davlat, ilmiy boshqarish, ijtimoiy-madaniy, transformasiya, taraqqiyot, strategiya, xalq, ochiqlik.

Ключевые слова: Общество, государство, научное управление, социокультурное, трансформация, развитие, стратегия, человек, открытость.

Key words: Society, state, scientific management, socio-cultural, transformation, development, strategy, people, openness.

KIRISH

Jamiyatdagi ijtimoiy transformasiya tushunchasiga qarashlar evolyutsiyasini o‘rganib chiqib, shuni ta’kidlash mumkinki, bunda bir ijtimoiy-siyosiy tizimning boshqasiga o‘tishdan iborat transformasiya jarayoni bo‘lib, buning natijasida turli vektorlar yuzaga kelishi mumkin. Davlat rivojlanishi va ularni prognozlashning murakkab tabiati sifatida jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funktsional jihatlari ushbu transformasiyalashuvda tashqi omillar ta’sirida ham, ma’lum bir ishtirokchining xohishiga ko‘ra ham, tizimning o‘zida to‘plangan tabiiy impulslar natijasida ham sodir bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonining **11-maqсадida belgilanganidek, “Xalq bilan muloqotning mexanizmlarini takomillashtirish” deb nomlanadi. Unga ko‘ra “Xalq bilan ochiq muloqotning mexanizmlarini yanada takomillashtirish, muhim qarorlarni jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda qabul qilish amaliyotini kengaytirish.**

Davlat organlariga kelib tushgan murojaatlarni jamlovchi markazlashgan tizimni yaratgan holda ularni ko‘rib chiqish muddati va sifati ustidan raqamli nazorat o‘rnatish, aholining kundalik turmush tarziga bevosita ta’sir qiluvchi masalalar bo‘yicha murojaatlar tezkor va sifatlilik ko‘rib chiqilishini ta’minlash.

“Davlat xalqqa xizmat ko‘rsatishi shart” g‘oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi “Xalqparvar davlat” milliy dasturi izchil amalga oshirilishini ta‘minlash.

Jamoatchilik palatasining faoliyatini samarali tashkil etib, uning fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va aholini qiynayotgan muammolarni hal etish yo‘llarini belgilash jarayoniga faol jalb etish”[1.] asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyat nazariyasining konseptual tabiati uning murakkablik salohiyatini kuchaytirish muammosini hal qilishni, ya‘ni bir xil tushunchalar yordamida talqin qilishni talab qiladi. Bunda yaqin davrlarda bo‘lgan transformasiyalashuv vaziyatlarni va shu bilan eng xilma-xil vaziyatlarning solishtirilishini ta‘minlaydi. Hatto eng o‘xshash narsalarni ham solishtirish mumkin bo‘lgan narsa sifatida ko‘rish istagi funktsional taqqoslash usulidan kelib chiqadi. Bizningcha, birinchidan, u sof tasniflash usulini istisno qilinadi, chunki tasniflar o‘hshashlik bo‘lsa, boshqa jarayon haqida savol tug‘ilishi tabiiy holat hisoblanadi. Albatta, biz umuminsoniy tushunchalar yordamida vaziyatlarni tartibga solishdan bosh tortmaymiz, lekin tasniflashda, ya‘ni qandaydir nomlashda bilimga bo‘lgan uslubiy xohishni qondira oladigan shaklni inobatga olish kerak.

Funktsional taqqoslash usullarining yo‘qligi zamonaviy jamiyatning o‘ziga xosligini aks ettiradi, ammo bu an‘anaviy modellarga nazariy va uslubiy tayanishni rad etishning sababidir. “Zamonaviy jamiyat uning eng muhim quyi tizimlarining funktsional avtonomiyasi va operatsion izolyatsiyasi bilan tavsiflanadi. Uning funktsional tizimlariga o‘z-o‘zini tashkil qilish va o‘z-o‘zini ko‘paytirish erkinligi beriladi”[2.18.]. Ammo bu shuni anglatadiki, umumiy tizim endi o‘zini operatsiyalarni boshqarishda emas, balki uni quyi tizimlarga ajratish shaklining tarkibiy ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin.

Ta‘kidlash lozimki, bu jarayon jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funktsional jihatlarini juda ham zarur ekanligini anglatadi. Faylasuf A.A.Frenkin fikricha, “Umumiy siyosiy manfaatning ustuvorligi (yuqori) alohida manfaatlarining unga bo‘ysunishini va shaxsiy erkinliklarning cheklanishini anglatadi”[3.137.]. Shu o‘rinda G‘arb nazariyotchilari dastlab jamiyatni boshqarish jarayonida ijtimoiy institutlarda erkinlik, atomizm va stixiyalilik tamoyillariga muvofiq tashkil etilishi lozimligini tushunish bilan xarakterlanadi. Keyinchalik esa xolizm (konservativ tushunish), shuningdek, o‘zaro raqobat va hukmronlik holatida bo‘lishi zarurligi haqida o‘z qarashlarini bayon etadi. G‘arb nazariyasi doirasida boshqaruv institutsionalligining ikkita asosiy varianti (modellari) ishlab chiqilgan bo‘lib, ularga mos keladigan jamiyatni institutsional boshqarish konseptsiyalarini yangilaydi.

*Birinchi*dan, neo-nominalistik ijtimoiy boshqaruvning liberal-libertar va anarxistik nazariyalari va kontseptsiyalarida amalga oshirildi.

*Ikkinchi*dan neorealistik (konservativ) nazariyada taqdim etilgan. Ushbu qarashlarning individualistik ijtimoiylik tamoyillariga muvofiqligi quyidagi funktsiyalarni belgilaydi:

Tadqiqotchilar K.Popper, E.Dyurkgeymmlar fikricha, individualistik asoslari erkinlik va individualizm tamoyillarida asosida ochiladi. G‘arb demokratiyasi asoschilaridan biri T.Jefferson fikricha individualistik ob‘ektiv ravishda tarixiy jihatdan, “... unumdor va nofeodallashgan yerlarda o‘zaro qo‘shnilar munosabatlarida shaxs o‘z-o‘zidan bo‘lgan hayot sharoitida shakllangan muhitni ta‘sirini inobatga olish kerakligi muhimdir”[4.33.]. Demokratiya negizida aynan erkinlik tamoyili yotishini hisobga olsak, unda ijtimoiy institutlar jamiyatni boshqaradi, erkinlik darajasini maksimal darajada oshirishga qaratilgan bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlar bilan raqobatbardoshlik xususiyatini oshirib borishning ijtimoiy sharti — boshlang‘ich bo‘g‘inlardagi og‘riqli nuqtalarni aniqlash va uni bartaraf etishda jamoaviy yondashuvlarni tashkil etish hisoblanadi. Mahallabay ishlash tizimi murakkab jarayon bo‘lishiga qaramasdan, unda har bir insonning dardini tinglash, uning qismatini tubdan o‘zgartirish, jamiyat taraqqiyotini iqtisodiy o‘sishlar bilangina emas, balki aholining o‘z hayotidan mamnunligi bilan o‘lchash kabi mezonlar mavjud. Ushbu tizim o‘z navbatida, siyosiy chaqiruv ham hisoblanadi. Unga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy reformalar, ichki va tashqi resurslar hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar, turli idora va tashkilotlarning “faoliyat yo‘laklari” mahallalar kesimida tashkil etiladi.

Shuning natijasida ayni vaqtda yurtimizdagi barcha sohalar faoliyatida va kechayotgan o‘zgarishlar mohiyatida mahallabay so‘zining ahamiyati kundan kun ortib bormoqda. Respublikamizdagi barcha tashkilot va idoralarning mazkur amaliyot natijasida joylarda tashkil etayotgan ish faoliyati aynan mahallalardagi o‘zgarishlar va bu orqali mavjud muammolarning hal etilishiga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

FALSAFA

Darhaqiqat, mahalladagi mavjud muammolar va aholining kundalik masalalarini hal etish birgina mahalla tizimi xodimlari tomonidan bartaraf etish imkonsiz. Shu sababli bu jarayonda har bir soha mas'ullarining ishtiroki va aralashuvi muhim jihatdir. Joylarda olib borilayotgan mahallabay ishlash mexanizmining ham muhim asosini ana shu tamoyil – barcha soha vakillarining hamjihat bo'lib, hududlardagi masalalarni yechishga kompleks yondashishi tushuniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahallabay ishlash, bu – barcha soha mutasaddilarining bir musht bo'lib, mahallalardagi muammolar, aholi turmushidagi muhim masalalarni birgalikda hal etishning yangicha mexanizmidir[5].

Jamiyatni institutsional va funktsional jihatdan boshqarishda joylardagi muammoli masalani mahallabay aniqlash va bartaraf etish, xususan, hududlarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat Ishchi guruhlar tuzilgan. Mazkur amaliyot natijasida joylardagi odamlarni qiynayotgan ko'plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

Bu tadqiqotchi olimlar fikricha “jamiyatning transtsendental nazariyasi” talabiga ham taalluqlidir, uni oddiy empirik usullar yordamida shakllantirish mumkin bo'lmagan, ammo u “transtsendental” tushunchasi yordamida individual sub'ekt[6.23.] bilan bog'langan tushuncha sifatida talqin qiladi. Jamiyatdagi mahallabay kabi boshqaruvning joriy etilishi tubdan o'zgarishlarga olib kelishi kutilmoqda. Birinchi navbatda, umumlashtirish sohasida (birdan ko'p qoidalarga o'zgarishlar kiritish orqali), ijtimoiy-madaniy texnologiyalar sifatida yoki kognitiv qobiliyatlarining moslashuvi sifatida namoyon bo'ladi. bu jarayonda semantika, bu o'z qiymatini isbotlagan narsani qayta ishlatishni o'z ixtiyoriga qo'yadi. Bunda aniqlangan muammolarni bartaraf qilish maqsadida har bir tuman va shahar bo'yicha alohida “Manzilli chora-tadbirlar dasturi”[5.] ishlab chiqildi va undagi belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Kognitiv innovatsiyalarga (o'rganishga) ixtisoslashgan va buning uchun maxsus chiqarilgan fanning funktsional tizimini differentsiatsiyalash sohasidagi kognitiv qobiliyatlar ham tub o'zgarishlar kiritmaydi. Bu o'rinda mahallabay ishlash jarayoni fuqarolarni bir-biriga burch va umummilliy jarayonlar bilan bog'liq ekanligi muhim hisoblanadi. Bunda odamlar ehtiyoji ko'p funktsiyali tizimli talablari sifatida tegishli (tizimli), odamlar o'zlarini o'zlari boshqarishga birlashtiriladi. “... odamlarning dunyoqarashining barcha savollari”, deb yozgan S.L.Rubinshteyn, - “shaxs sifatida va uning qiziqishlari umumiylik yoki xilmaxlilik va bir butunlikda birlashadi”[7.382.]. Demak, mahalladagi mavjud muammolarni bartaraf etish mexanizmi institutsional shaklda hal etilishi maqsadida birlashadi, degan qarash shakllanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mahalladagi mavjud muammoni o'rganish ma'lum darajada cheklangan hisoblanadi. Bu tizimining parametrlarini jamiyatning taraqqiyotiga mos keladigan ma'naviy va dunyoviy hokimiyat organlari nisbati bilan o'zaro bog'lash zaruratini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatning muayyan turiga mos keladigan jamiyatni boshqarishning printsiplari bilan bog'liq masalalarni hal etadi. Ammo ular jamiyat turlarining muammolariga, ularning boshqaruvga asoslangan institutsional modellariga va ular uchun mos ilmiy loyihalarga daxldor bo'lishi lozim.

Turli xil jamiyatlarda tashkil etilgan jamiyatni boshqarishning ilmiy metodologiyasining institutsional asoslari o'rganish natijasida boshqaruvning yangi mexanizmi joriy etilishi haqida yuqorida aytilgan fikrdan ma'lumki, boshqaruvchi institutsionalizatsiyani o'rganishning yangi-nominalistik va neorealist an'analari haqida V.M.Beynkovning qarashlari e'tiborga molik. Jumladan, odamlar jamiyatdagi muammolarni ayrim jihatlarini yetarlicha o'rganilmaganligi sababli ularga e'tibor bermaydilar. Xususan, “Jamiyat taraqqiyotiga mos keladigan institutsional jarayonlarning barqaror modellari rivojlanmaganligini va shu bilan jamiyatni boshqarishning metodologiyasini qo'llash samaradorligini aniqlash kerak”[8.239.]ligi bayon etadi. Bu aynan bizning jamiyatdagi mahallabay ishlash tizimini joriy qilinishiga mos keladi. Chunki bu jarayon jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funktsional jihatlarini kashf etilishiga sabab bo'lishi mumkin.

XULOSA

Jamiyatni boshqarishda ma'naviy va dunyoviy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish turli davrlar va nazariyni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Faylasuflarning asarlarida jamiyatni ilmiy boshqarish jarayonida ularning uyg'un kombinatsiyasi g'oyasiga asoslangan ma'naviy va dunyoviy hokimiyatlarning o'zaro bog'liqlikning dialektik me'yorini tuzish haqida gap boradi.

Boshqaruv instituti jamiyatning boshqariladigan kichik tizimlarini boshqarish va institutsionalizatsiyalashni institutsionalizatsiya qilishni o'z ichiga olganligi aniqlandi. Metafizik metodik an'analar doirasida ma'naviy quvvat (konservativizm) muassasalariga yoki dunyoviy hokimiyat muassasalariga (liberalizm) ustunlik beradi. Dialektik uslubiy an'ana, aksincha, ijtimoiy hayotning asosiy ustuvor vazifasi bo'lib qoladigan ma'naviy va dunyoviy hokimiyatlarning kelishuvini nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son.
2. **Луман Н.** Л Общество как социальная система. Пер. с нем./ А. Антоновский. М: Издательство "Логос". 2004.
3. Пормозер Г., Френкин А.А. Новый консерватизм: вызов для России. – М.: Издательство института философии РАН, 1996.
4. Томас Джефферсон о демократии: сборник: перевод// Сост., подготовка оригинала, вступит. ст. С. К. Падовер; послесл., коммент. В.Н.Плешкова; пер.с англ. – М.Д.Маркина. – СПб.: Рес Гумана: Лениздат, 1992.
5. Mahallabay ishlash tizimining mohiyati nimada? Uning amaliy samaralari qanday? - Vazir shu bilan bog'liq savollarga batafsil javob qaytardi. <https://xs.uz/uzkr/post/mahallabay-ishlash-tizimining-mohiyati-nimada-uning-amaliy-samaralari-qandaj-vazir-shu-bilan-bogliq-dolzarb-savollarga-batafsil-zhavob-qajtardi>
6. Foerster, H. von. Observing Systems. Seaside Cal., 1981.
7. Рубинштейн С.Л. проблемы общей психологии. Москва. Педагогика. 1973.
8. Buchanan A. Secession: the right to secede, human rights and the territorial integrity of the state. Rudomino, 2001.
9. Urmonalievich, Y.S. (2023). Dialectic of Socio-Cultural Technologies and Technological Development in Society. *American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750)*, 1(8), 65-70.
10. Yuldashev, S. (2023). JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVINING YANGI IJTIMOY-MADANIY USULLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 40-40.
11. Urmonalievich, Y.S. (2023). DESIGNING SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN THE TRANSFORMATION OF SOCIETY. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 17, 110-116.
12. Yuldashev, S.U. (2019). THE ROLE OF THE FUNCTION OF STABILIZATION AND DEVELOPMENT OF SOCIETY IN SCIENTIFIC MANAGEMENT (AS SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGY). *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1 (6), 255-259.